



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



Ro'yxatga olindi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim  
vazirligi

BD-5112100 -3.00

2016- yil "25" 08

2016- yil "25" 08

## UY-R O'Z G'OR ASOSLARI

### FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5112100 - Mehnat ta'limi

Toshkent – 2016

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2016-yil "25" 08 dagi "35" - sonli buyrug'ining 2 -ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2016-yil "2" 08 dagi "3" -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassalari bilan kelishildi.

**Tuzuvchi:**

B.S.Axmadaliev – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
"Kasb ta'limi metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi  
L.R.Zaripov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
"Kasb ta'limi metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**I.Karimov** – Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti  
"Umumtexnika fanlari" kafedrasida mudiri, dotsent  
**M.Sh.Isayeva** – Toshkent shahar Sergeli tumani 304-maktab umumiy o'rta  
ta'lim maktabi direktori

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil "14" 04 dagi 10-sonli bayonnomasi).

## **Kirish**

Uy-ro'zg'or asoslari fani uy-ro'zg'or yuritish, uy-ro'zg'or mashinalarini ta'mirlash, pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari, yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni, sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari, uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari va boshqalarni o'rganuvchi fandır.

### **Fanning o'quv maqsadi va vazifalari**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda uy-ro'zg'or boyumlari, ularni ta'mirlash usullari, hamda jihozlanish dizayni, sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari, uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari va boshqalari haqida ko'nikma va malaka shakillantirishdir.

Fanning vazifasi – pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash; oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohasiga oid kasb-hunar turlari; pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari xaqida talabalarga bilim berishdir.

### **Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

Uy-ro'zg'or asoslari fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- uy-ro'zg'or yuritish;
- uy-ro'zg'or mashinalarini ta'mirlash;
- uy-ro'zg'or buyumlariga texnik qarov *to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi*;
- o'quvchilar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash;
- oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohasiga oid kasb-hunar turlari;
- pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullarini *bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi*;
- yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari;
- xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash;
- taklif etilgan echimlar asosida xonalarni jihozlash;

- shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik taʼminoti tizimi va undan foydalanish qoidalari;
- uy va xonadonlarni taʼmirlash ishlarining asosiy turlari;
- taʼmirlashda qoʻllaniladigan zamonaviy qurilish materiallari;
- uy va xonadonlarni taʼmirlashda qoʻllaniladigan asosiy ish asboblari;
- suv taʼminoti tizimi, suv quvurlari, ventil va joʻmraklarni sozlashda mayda taʼmirlash ishlarini bajarish;
- qurilish va taʼmirlash bilan bogʻliq kasb-hunarlar boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarga ega boʻladilar.

### **Fanning oʻquv rejadagi boshqa fanlar bilan oʻzaro bogʻliqligi va uslubiy jixatdan uzviy ketma-ketligi**

Uy-roʻzgʻor asoslari fani oliy texnika oʻquv yurtlarida oʻtiladigan asosiy fanlardan biri boʻlib, «Fizika» fanidan keyin oʻqitilib, barcha texnika qurilma va asboblarning elektr qismlari uchun xilma-xil va murakkab texnik masalalar yechishda, xisoblash va loyixalashda nazariy asos sifatida qoʻllaniladi.

### **Fanning taʼlimagi oʻrni**

Mazkur fan taʼlim bilan bevosita aloqada boʻlib, vatanimizning texnika soxalarida elektr va radio texnikasidan unumli foydalanish va yanada rivojlantirish kabi masalalarni ishlab chiqarish bilan qoʻshib olib borish yaxshi natijalarni beradi.

### **Fanni oʻqitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.**

Talabalarning Uy-roʻzgʻor asoslari fanini oʻzlashtirishlari uchun oʻqitishning ilgʻor va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbqiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni oʻqitishda plakatlar, chizmalar, koʻrgazmali texnik vositalar (kompyuter texnikasi va elektron versiyalar) yangi pedagogik texnologiyalar asosida oʻqitish, bilim koʻnikma va malakalarni hosil qilish koʻzda tutiladi.

### **Asosiy qism**

#### **Fanning nazariy mashgʻulotlari umumiy mazmuni**

Oʻquvchilar pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik taʼmirlash; oyna romlarini kichik taʼmirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat koʻrsatish soxalariga oid kasb-hunar turlari; pol qoplamalari hamda mebellarning laklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik taʼmirlash ish usullari; yurtimiz meʼmorchiligi tarixi, xona intereri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan anʼanalar hamda zamonaviy taraqqiqot yoʻnalishlari; xona va fanlar boʻyicha oʻquv kabinetlarida mebel va qoʻshimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri

hamda eskizlarini tayyorlash; taklif etilgan echimlar asosida xonalarni jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari; ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish; qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar

### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar Uy-ro'zg'or asoslari fani ma'ruzalarida o'tilgan mavzulardan foydalanib amaliy mashg'ulotlar bajarishni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

Birikmasiz to'g'ri burchak shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi.

Yog'och materiallarini rejalash, yo'nish, arralash, randalash. Ish usullarini o'rganish va malaka hosil qilish:

Birikmasi egri chiziq shaklidagi buyumlar tayyorlash texnologiyasi Yog'och materiallarni o'yish va parmalash, pardozlash (silliqlash).

Mix va burama mixlar yordamida oddiy birikma tayyorlash texnologiyasi

Elimlar yordamida murakkab birikma tayyorlash texnologiyasi

Burchakli murakkab bir tirmoqli birikmalarni tayyorlash texnologiyasi. Tirmoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi

Burchakli o'rtalik birikmalar tayyorlash texnologiyasi. Quloqcha va turumli o'rtalik birikmalar texnologiyasi.

Murakkab ko'p tirmoqli birikmalar tayyorlash texnologiyasi Burchakli ko'l tirmoqli birikmalar texnologiyasi va birlashtiriladigan birikmalar

Yog'ochlarga kuydirib ishlov berish texnologiyasi Yog'ochlarni kuydirib ishlov berishga ishlatiladigan materiallar va asboblarni rasm chizish.

Yog'och materiallariga pardoz berish va pardozlovchi asboblarni Yog'ochlarga lak bilan pardoz berishda uning strukturasi to'la bilgan holda pardozlash. Lakli materiallar tavsiyi va uni yuzaga surtish uslubi. Duradgorlik polirovkasi va uni bajarish texnologiyasi

### **Laboratoriya mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya ishlarida talabalar hayotiy faoliyatida ko'p uchraydigan ta'mirlash ishlariga oid vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Laboratoriya mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

Yog'och materiallariga mexanik ishlov berish texnologiyasi

Yog'och materiallariga yumaloq arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga tasma arrali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga randalovchi (fugankalash) dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga reymsuzli (xatkashli) frezali dastgohlarda ishlov berish texnologiyasi

Yog'ochlarga parmalash va o'yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi

Tokarlik dastgohida yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi

Tokarlik dastgohlarida yogochga kuydirib ishlov berish

Yog'ochsozlik va mebelsozlik korxonalariga sayoxat

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish.
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish.
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash.
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish.
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distsion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

Rejalash asboblari

Arra turlari

O'yish va kesish usullari

Yoqochga ishlov berish dastgoxi xaqida tushuncha

Randa turlari

Japs randa va uning ishlatilish soxalari

Elektr parmalash mashinasi (mexanizmi) tuzilishi

Birikmalar va ularning vazifasi

Diskli arra tishlari shakli va ularni charxlash

Nazorat - ulchov asboblari

Yogoch materiallarni quritish

Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish

DVP maxsulotlari

DSP maxsulotlari

Shpingaletlar va ularning ishlatilishi

Oynalar va ularning ishlatilishi

Daraxtlarning texnik va mexanik afzalliklari

Fanalar turlari

Yoqochlarni bo'yiga arralash usuli

Yog'ochga kuydirib ishlov berish turlari

Yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi

Yogochga kuydirib ishlov berish

Yog'ochlarga o'yish dastgohlarida ishlov berish texnologiyasi

To'g'ri tirnoqli birikma tayyorlashning texnologik xaritasini tuzish

Jo'va tayyorlashning texnologik xaritasini tuzish

Birikmalarni rejalash

## **Fan dasturining informatsion-uslubiy ta`minoti** **Didaktik vositalar**

**Didaktik vositalar:** uy-ro'zg'orda ishlatiladigan texnik mashinalarning turlari keltirilgan jadval, uy-ro'zg'or texnik mashinalarini ta'mirlash asboblarning turlari, turli xil sxemalar, tarqatma materiallar.

**Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** mavzuga oid ko'rgazmali qurollar va plakatlar.

**Video-audioskunalar:** kompyuter, proyektor, kolonkalar.

**Kompyuter va multimediali vositalar:** prezentatsion va elektron-didaktik vositalar.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati** **Asosiy adabiyotlar**

1. У.Иброхимов “Электр машиналар” Т., Ўқитувчи, 2001.
2. А.С.Искандаров. материалларни кесиб ишлаш, кесувчи асбоблар ва станоклар.-Т.: «Фан ва технология» 2004.
3. Н.Ш.Турдиев “Радиоэлектроника асослари” Т., Ўқитувчи, 1992.
4. А.Нигматов. “Радиоэлектроника асослари” Т., Ўқитувчи, 1994.
5. С.Махкамов “Ўқув устахоналарида ўтказиладиган амалий машгулотлар”. Тошкент., Ўқитувчи, 1982.
6. Р.С.Шермухамедов, С.С.Яхяев, А.Э.Пармонов. Чилангарликдан амалий ишлар.-Т.: «Иқтисод-молия» 2007.
7. Г'М.Абдуқодиров. Kasb ta`limi praktikumi.-Т.: “Sharq” 2012.

## **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Х.Рихситиллаев “Уй рузгор иситиш асбоблари” Тошкент тезкор босмахонаси, 2006.
2. К.В.Usmonov. “Metall kesish asoslari” Т.: «O'qituvchi» 2004.

## **Elektron ta`lim resurslari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

